



**ART TERAPIYANING QO'G'IRCHOQ TEATRI TURI YORDAMIDA 6-7
YOSHLI BOLALARNING BILIM OLIISHGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH.**

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va

metodikasi (maktabgacha ta’lim)1-bosqich

magistranti Abduxolisova Gulsanam O'ktambek qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226584>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi qo'g'irchoq terapiyasi yordamida 6-7 yoshli bolalarning bilim olishga qiziqishini rivojlantirish, bolalarni ijodkorlikka va ularning ongida mehr-muhabbat, jamoa bo'lib ishlash, yaxshilik va yomonik haqidagi tushunchalarni paydo qilishga qaratilgan. Chunki, bolalikda olingan har qanday bilim bolaning ongida bir umr saqlanib qoladi.

Kalit so'zlar: Qo'g'irchoq teatri, soya teatri, qo'lqop teatri, fonus hayol, dekoratsiya, fantaziya, stol teatri.

Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdan boshlab mamlakatimizda yoshlarimizni jismonan baquvvat, sog'lom, ma'naviyatli bo'lishi uchun yoshlarga oid davlat siyosati olib borildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joyizki, hozirgi kunda Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ham sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli shaxsni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ma'naviy ma'rifiy islohotlarda teatr san'atini izchil ravnaq toptirish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, yurtdoshlarimizni ezgulikka chorlaydigan badiiy asarlar yaratish, ayniqsa professional qo'g'irchoq teatrlarini rivojlantirish masalasi ustuvor maqsad qilib olingan. Buning isbotini 2017-2021- yillarda mamlakatni rivojlantirish dasturi bo'lgan “Xarakterlar strategiyasi” va “Besh muhim tashabbus”da ko'rishimiz mumkin.

Art terapiyaning maqsadiga kelsak, ular juda xilma-xildir: o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini ifodalash, shaxsning ichki integratsiyasi, tashqi haqiqat bilan imegratsiya, shaxsiy tajribani kengaytirish. Spontan modellashtirish voki rasm chizish art terapiyaning asosiy vositalari bo'lib, ular muzey ishlarida ham qo'llaniladi. Tasviriy ijod - fantaziya va voqelikning sintezini ta'minlovchi eng yaxshi vosita bo'lib, kattalar yoki bolalarda bunga san'at yordamisiz erishishi qiyin. Psixoterapiyaning bu sohasidagi ikkinchi muhim tushuncha sublimatsiyadir. Ongsiz instinktlar va tushunchalarni san'at orqali ifodalashdan iborat.

Qo'g'irchoq terapiyasi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi va sevimli qahramon (*ertaklar, multfilmlar, o'yinchoqlar*) tasviri bilan identifikatsiya qilishga asoslanadi. Bu usul turli xulq-atvor buzilishlari, qo'rquvlar, kommunikativ sohani rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va boshqalar uchun qo'llaniladi. Qo'g'irchoq terapiyasi texnologiyasi bola uchun biror belgi yordamida travmatik vaziyat bilan bog'liq «*o'yin*» hikoya tarzida amalga oshiriladi. O'yin davomida hikoyaning dramaturgiyasini bola o'z qovliga olishi va u qahramonga hamdardlik bildirib, u bilan muammoni aniqlashini ta'minlash zarur. Hikoya ochilar ekan, bolaning hissiy zo'riqishi ortishi kerak. Uning uchun syujet oxiridagi ziddiyatning «yuzaga chiqishi» bilan, maksimal darajaga yetishi bilan, zo'ravon hissiy reaksiyalar (yig'i-sig'i, kulish) bilan almashtirilib, zo'riqish chiqarish bilan «*o'sib boruvchi*» asosga quriladi. «Spektakl» ni tugatgach bola o'zini yengil his qilishi kerak.

Qo'g'irchoq terapiyasi usuli uchta asosiy tushunchaga asoslanadi: «*o'yin*» - «*qo'g'irchoq*» - «*qo'g'irchoq teatri*». *O'yin* - bu bola va kattalar uchun nutq shakli. Bu his-tuyg'ularni ifodalash, munosabatlarni o'rganish va o'zini anglash vositasi. Bolalar o'yini bola uchun mazmunli va ahamiyatlidir, chunki o'yin orqali ularga so'z topish qiyin bo'lgan joylar mavjud bo'ladi. Bolalar o'yinchoqlardan aytib berish, uyaladigan narsalarni qilish va ko'ngli qolgan his-tuyg'ularni ifodalash foydalanish mumkin.



Shunday qilib bola dunyosi bu harakat va faoliyat dunyosi bo'lib, qo'g'irchoq terapiyasi bolani hijolat qilmasdan yoki travmatizatsiya qilmasdan, bu dunyoga kirishga imkon beradi va bolaning manfaatlarini o'qituvchining tuzatish vazifalari bilan birlashtiradi.

Qo'g'irchoq terapiyasida tuzatuvchi harakatlarning asosiy usuli bola va kattalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning oraliq obyektini sifatida ishlatiladi. Qo'g'irchoqni qo'liga qo'yib, bola unga eng yaxshi his-tuyg'ularini quvonch bilan «o'tkazadi», muammolar va qo'ruqlarni unutadi, o'zida yashirin xarakterlarni topadi. Qo'g'irchoq terapiyasini amalga oshiradigan quyidagi funktsionalni ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikativ - emotsional aloqani o'rnatish, bolalarni jamoaga birlashtirish; dam olish - hissiy stressni yengillashtirish; ta'lim-hayotiy vaziyatlarining o'yin modellarida shaxsning namoyon bo'lishini psixokorreksiya qilish; rivojlanayotgan - aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira, diqqat, idrok va boshqalar), vosita mahoratlari va hokazo. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning teatr faoliyatlarini tashkil etish uchun joyni tayyorlashi va bezashi bolalarda bu faoliyatga nisbatan doimiy qiziqishni shakllantirishi muhim.

Qo'g'irchoq o'yini xalq og'zaki ijodiga asoslangan san'at hisoblanib dastlab uning yozma matni bo'lmagan. U uzoq yillar kuzatish, mashq qilish, yodlash, malaka hosil qilish orqali muayyan syujetlar vosita va uslublar bilan otadan-o'g'ilga, ustozdanhogirdga o'tib kelavergan. Qo'g'irchoqbozlar qo'yilgan tomoshalar orqali jamiyatdagi illatlar: zo'ravanlik, poraxo'rlik, tekintomoq amaldorlarni qattiq tanqid qilganlar hamda zahmatkash xalqqa kulgi va zavq bag'ishlaganlar.

"Fonus hayol" bir qator afzalliklari: teatri asbob-uskunalarining oddiyliigi, ko'rsatishning oson va qulayligi tufayli keng tarqalmoqda. Bunday teatr bolalarni estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. "Fonus hayol" teatrida ish hammaga topiladi birining ishi ikkinchisining ish natijasiga bog'liq bo'ladi.

Dekoratsiyalar kartondan yasaladi. Ularni qo'lda chizish, nusxa qog'oz yoki kal'kadan o'tkazish, yoki andoza asosida qirqish mumkin. Dekoratsiyalarga tabiiy ko'rinish berish mumkin. Agarda uy derzasiga qizil qog'oz yopishtirilsa ekranda u yorug'roq ko'rinadi yoki cho'pdan qilinadigan daraxt tanasiga kartondan shoxlar va ularga yupqa qog'ozdan barglar yopishtirilsa ular xilpiraydi ekranda esa barglar go'yo shamolda qimirlyotgandek ko'rinadi. Agarda shartli tarzda dengizni ifodalovchi kun rangini ifodalab uning ustidan kema yurgizilsa ekranda to'lqinlar o'sha suzib ketayotgan kemani ko'rish mumkin bo'ladi. Teatr personajlari kartondan tayyorlanib, qora rangga bo'yaladi. Ularni harakatga keltirish ham mumkin.

Stol teatri. Stol teatrining bir necha turlari mavjud. Bu teatlardagi aktyorlar jismlarni qo'l bilan tagliklar sim magnit orqali turlicha harakatga keltiradi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi.

So'ngra unga mos personajlar tayyorlanadi. Jonivorlar shakllarini bolalar rasmi ertak kitoblardan kal'kaga ko'chirishlari mumkin.

Qo'lqob qo'g'irchoqlar (barmoqsiz qo'lqob). Eski qo'lqobcha, qo'lqob qo'g'irchoqlarni yasash uchun ashyo bo'la oladi. Qo'lqob qo'g'irchoqning bosh qismi, katta barmoq esa, burun bo'lib xizmat qiladi. Qo'lqobni to'liq hayvonga aylantirib olish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o'taydi. Qo'lqob qo'g'irchoq tanasi bo'lishi, unga bosh va boshqa detallarni birlashtirish ham mumkin. Qo'lqob topilmasa, unda to'qilgan eski buyum yoki matodan foydalanamiz. Bunda beshta barmoq o'rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo'yiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 6-7 yoshli bolalarga teatr qo'yishdan maqsad bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an'analarimizni singdirishda ularga shu aziz vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofdan bo'layotgan voqea hodisalarni, o'zining odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab-avaylash, unga mehr uyg'otishda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrdan tomoshabinlar tomoshalarini faqat ko'rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar qo'g'irchoq teatridan ko'rganlaridan so'ng, qahramonlarning harakati, ahloqi, odobini, birgalikda muhokama qilish bola qalbida ezgulikka, hayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish tuyg'usini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar



МАКТАВГАЧНА ТА'ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТИ, МУАММО YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 26 майдаги ПФ-6000-сонли Фармони.

2. М.Артикова-ART ТЕРАПИЯ //О‘quv-uslubiy majmua, Andijon 2023.4-5b

3. М.Х.Ашурова Қо‘ғ‘ирчоқ театр сан’атининг актьорлик мактаби.Т.: 2007

4. Сперанский Е. Актёр театра кукол. Москва: Всерос-театральное о-во, 1965 йил.-
159с.

5. Қодиров М., Қодирова С. Қўғирчоқ театри тарихи. Т.: 2006 йил.